



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**



Ro'yxatga olindi:
№ **60230100-1.23**
2021- yil " _ " _



"TASDIQLAYMAN"

SamDU rektori:

R.I.Xalmuradov

2021- yil " _ " _

O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi:	230000- Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili

Fan dasturi "Mumtoz adabiyot tarixi" kafedrasining 2021-yil ____-____dagi ____-son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:



f.f.d. I. Sulaymonov

Fan dasturi Filologiya fakulteti kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2021-yil ____-____dagi ____-sonli bayonnoma).

Fakultet Ilmiy kengashi raisi



f.f.d. A. Pardayev

Fakultet uslubiy Kengashi raisi

dots. Sh. Mahmadiyev

"Kelishildi"

SamDU o'quv ishlari

bo'yicha prorektor:



prof. A. Solev

Fan/modul kodi O'ATM20014		O'quv yili 2021- 2022 2022- 2023	Semestr 3-6	ECTS – Kreditlar 14	
Fan/modul tur Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fan nomi O'zbek adabiyoti tarixi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Umumiy (soat)	
		210	210	420	
2.	I. Fanning mazmuni “O'zbek adabiyoti tarixi” fanining ta'limiy maqsadi: “O'zbek adabiyoti tarixi” fani asosiy ixtisoslik fani hisoblanib, 3-6-semestrlarda o'qitiladi. Dasturda belgilangan mavzular ma'ruza, amaliy mashg'ulot va seminar shaklida olib boriladi. Fanning ayrim muhim muammolari va adabiy-badiiy asarlar talabalarga mustaqil o'zlashtirish uchun tavsiya etiladi. “O'zbek adabiyoti tarixi” fani o'rganiladigan muammolarning yaqinligi jihatidan falsafa, tarix, matnshunoslik va manbashunoslik, dinshunoslik fanlari bilan o'zaro bog'liqdir. “O'zbek adabiyoti tarixi” fanining tarbiyaviy maqsadi: Talaba yoshlarni xalqning boy ma'naviy merosga suyangan holda ajdodlarga hurmat ruhida tarbiyalash. Adabiy-badiiy manbalarni, mumtoz adabiyot namunalarini o'rgatish, o'zlashtirish orqali ularning dunyoqarashini kengaytirish. Mumtoz matnlar o'zlashtirib, ularni tahlil va talqin etish malakasini shakllantirish “O'zbek adabiyoti tarixi” fanining rivojlantiruvchi maqsadi: talabalarga o'zbek mumtoz adabiyoti vakillari va ularning asarlari, mumtoz poetika asoslari haqida ma'lumot berish, tarixiy-adabiy jarayonning taraqqiyot qonuniyatlari va ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi, jadidchilik harakatining adabiyotdagi ifodasi o'laroq dunyoga kelgan milliy uyg'onish adabiyotining xos xususiyatlaridan ta'lim berish. Talaba yoshlarni xalqimizning boy ma'naviy merosi bilan yaqindan tanishtirish, o'sib kelayotgan avlodni sog'lom e'tiqod va yuksak axloq sohibi bo'lgan ajdodlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ular qoldirgan ma'naviy xazinani tom ma'noda qadrlashga o'rgatishdan iborat. - talabalarga mumtoz adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berish; - o'zbek adabiyoti tarixi namunalari bilan izchil va tizimli suratda				

tanishtirish;

- noyob adabiy hodisalar, badiiy va ilmiy asarlarning jamiyat, millat va shaxs rivojidagi ahamiyatini tushuntirish;

- talabalarda badiiy asar mohiyatini chuqur anglash, ularni tahlil va talqin qilish ko'nikmasini shakllantirish;

- mavjud matnlarni poetik jihatdan tahlil va tadqiq etish, teran ilmiy-nazariy xulosa va yechimlarga kelish;

- egallangan bilim va malakani xalq ma'naviyatini rivojlantirish yo'lida amaliyotga tatbiq etish.

O'zbek adabiyoti tarixi o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

- o'zbek mumtoz adabiyotining milliy madaniyatimiz tarixi va takomilidagi o'rni, adabiy hodisalar, badiiy va ilmiy asarlarning jamiyat, millat va shaxs hayotidagi ahamiyati, mumtoz adabiyot taraqqiyotining asosiy bosqichlari, mumtoz adabiy janrlarning shakllanishi va takomili, adabiyot tarixini o'rganishning metodologik asoslari va uni davrlashtirish tamoyillari, o'zbek mumtoz adabiyoti tarixi davrlarining o'ziga xos jihatlari, janrlar poetikasi, she'r sistemasining umumiy qonuniyatlari, badiiy san'atlarning hosil bo'lish yo'llari va mumtoz she'riyatda qo'llanish usullari, mumtoz she'riyatda qofiya va radifning tutgan o'rni, mumtoz nazmiy asarlar matni ustida ishlash, mumtoz asarlar uchun tuzilgan lug'atlardan foydalanish, tasavvufiy istilohlar ma'nosini tushunish, o'zbek adabiyoti tarixida qo'llangan timsollar va ramzlar mohiyatini anglash, milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti shakllanishining ijtimoiy-tarixiy va adabiy-estetik omillari, o'zbek milliy uyg'onish adabiyotiga xos yangi janrlar va ularning taraqqiyot tamoyillari, milliy uyg'onish davri she'riyatida vazn, poetik janrlar va obrazlarning yangilanishi qonuniyatlari, jadid nasri, jadid dramasi va jadid adabiyotshunosligining shakllanishi hamda taraqqiyoti omillari, milliy uyg'onish davrida yangicha adabiy-estetik tafakkurning yuzaga kelishi sharoiti va sabablarini, bu davr adabiyotiga oid she'riy, nasriy, dramatik va ilmiy asarlarni tahlil qila olish bilimi, malakasi va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

"O'zbek adabiyoti tarixi" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

- *"O'zbek adabiyoti tarixi"* fani bo'yicha talaba o'zbek mumtoz adabiyotining milliy madaniyatimiz tarixi va takomilidagi o'rni, adabiy hodisalar, badiiy va ilmiy asarlarning jamiyat, millat va shaxs hayotidagi ahamiyati, mumtoz adabiyot taraqqiyotining asosiy bosqichlari, mumtoz adabiy janrlarning shakllanishi va takomili, adabiyot tarixini o'rganishning metodologik asoslari va uni davrlashtirish tamoyillari to'g'risida ***tasavvurga ega bo'lishi***;

- o'zbek mumtoz adabiyoti tarixi davrlarining o'ziga xos jihatlari, janrlar poetikasi, she'r sistemasining umumiy qonuniyatlari, badiiy san'atlarning hosil bo'lish yo'llari va mumtoz she'riyatda qo'llanish usullari, mumtoz she'riyatda qofiya va radifning tutgan o'rni, mumtoz nazmiy asarlar matni ustida ishlash, mumtoz asarlar uchun tuzilgan lug'atlardan foydalanish, tasavvufiy istilohlar

ma'nosini tushunish, o'zbek adabiyoti tarixida qo'llangan timsollar va ramzlar mohiyatini anglash, milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti shakllanishining ijtimoiy-tarixiy va adabiy-estetik omillari *xususiyatlarini bilishi*.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

KIRISH

«O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi» fanning maqsad va vazifalari, manbalari, o'zbek adabiyotini davrlashtirish.

Adabiyot tarixini o'rganishning metodologik asoslari va uni davrlashtirish tamoyillari. Adabiyot tarixi jamiyat tarixi tarkibida. Davrlashtirish tushunchasi, istilohlari va tamoyillari. Adabiy-badiiy hodisalar davrlashtirishning bosh tamoyili sifatida. Mumtoz adabiyot tushunchasi va uning xususiyatlari. O'zbek adabiyoti tarixining taraqqiyot davrlari.

"O'zbek adabiyoti tarixi" ilmining predmeti, ob'yekti, maqsad va vazifalari. O'zbek adabiyoti tarixini o'rganishning asosiy va qo'shimcha manbalari. Davrlashtirish tushunchasi va O'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirishning asosiy tamoyillari. Tarixiylik va adabiy-badiiy o'zgarishlar davrlashtirishning bosh tamoyillari sifatida. Mazkur masalaga oid fikr va qarashlar xilma-xilligi.

O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi (eng qadimgi davrlardan XIX asrgacha) Islomga qadar o'zbek (turkiy) adabiyoti.

Eng qadimgi og'zaki adabiy yodgorliklar, ularning manbalari. Yunon tarixchilarining asarlarida Markaziy Osiyo mif va afsonalariga oid ma'lumotlar. "Avesto" adabiy manba sifatida. "Avesto"ning o'rganilishi tarixi. Zardusht shaxsi haqidagi ma'lumotlar. "Avesto" va badiiy adabiyot.

Urxun-Enasoy bitiktoshlari adabiy manba sifatida. Urxun-Enasoy yodgorliklarining yaratilishi, o'rganilishi, janr va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. To'nyuquq, Bilga xoqon, Kultigin bitiglari. Ularda shaxs va millat erki. Irq bitig - adabiy manba sifatida. Uyg'ur-turk yozuvidagi yodgorliklar.

Mahmud Koshg'ariy va uning "Devonu lug'otit-turk" asaridagi adabiy parchalarning janr va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Asardagi afsona, rivoyat ("sav"), to'rtlik shaklidagi she'rlar va xalq qo'shiqlari. qadimgi turk moniylik adabiyoti. Buddaviylik mazmunidagi turkiy adabiyot. "Oltin yoruq" dostonining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.

"O'g'uznoma" dostoni. "O'g'uznoma"da qadimgi turkiy mifologiyaning aks etganligi. Dostondagi skiflar madaniyatiga oid unsurlar. Rashididdin

Fazlulloh Hamadoniyning "Jome' ut-tavorix" asarida afsona va rivoyatlar.

IX-XII asrlar adabiyoti.

Davrning ijtimoiy-siyosiy va madaniy xususiyatlaari. Markaziy Osiyoda arab va fors-tojik tilidagi adabiyot. Abu Mansur as-Saolibiy va uning "Yatimat ud-daqr" asari ilk tazkira sifatida. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino ijodi va adabiyot.

"Odam ush-shuaro" - Ro'dakiy, Abulqosim Firdavsiy, Nosir Xusrav, Umar Xayyom kabi fors-tojik tilidagi adabiyot namoyandalari va ularning o'zbek adabiyoti rivojiga ta'siri.

Turkiy tildagi yozma adabiyotning shakllanish omillari. Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodini o'rganish manbalari. "Qutadg'u bilig" dostonining topilishi, o'rganilishi, qo'lyozmalari, nashrlari. Asar kompozitsiyasi, timsollarning ramziy mohiyati. Asarda ijtimoiy-siyosiy va falsafiy masalalar, muallifning axloqiy va estetik qarashlari. Dostondagi she'riy shakllar: masnaviy, qasida, to'rtlik. Asarning bugungi kun uchun ahamiyati.

Aqmad Yugnakiy hayoti va ijodini o'rganish manbalari. "Hibat ul-haqoyiq" dostonining o'rganilishi, nashrlari va bu boradagi muammolar. Asardagi muqaddima, asosiy boblar va xotimalarning o'ziga xos kompozitsiyasi. Asarda ko'tarilgan axloqiy-falsafiy masalalar va ularga munosabat. Badiiy adabiyot va diniy manbalar (asarda oyat va hadislarining badiiy talqini). Aruz va mutaqorib bahri haqida tushuncha.

Tasavvuf va tasavvuf adabiyoti haqida tushuncha. Ahmad Yassaviy hayoti, "Devoni hikmat" to'plamining mazmun va g'oyaviy mundarijasi, janr xususiyatlari, badiiyati. Yassaviya tariqati va o'zbek adabiyoti.

Mug'ullar hukmronligi davri o'zbek adabiyoti (XIII-XIV asrlar)

Chingizxon istilosi, uning sabab va oqibatlari. Mo'g'ullar istilosi davrida muhojirlik adabiyoti. Badriddin Chochiy, Muhammad Avfiy Buxoriy va Pahlavon Maqmur ijodi.

Nosiriddin Rabg'uziy hayoti va ijodining manbalari. Adib ijodining o'rganilish tarixi. "Qisasi Rabg'uziy" ("qisas ul-anbiyo") - o'zbek badiiy nasrining ilk namunasi sifatida. Rabg'uziy va turkiy adabiyotda lirik janrlar taraqqiyoti.

Noma janri va uning manbalari. Fors adabiyotidagi noma janrining o'zbek adabiyotiga ta'siri. Shoir Xorazmiy haqidagi ma'lumotlar. "Muhabbatnoma" asarining o'rganilishi, nashrlari, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Noma janrining XV asrdagi taraqqiyoti: Xo'jandiy, Yusuf Amiriy, Said Ahmad ibn Mironshoh va Said Qosimiy nomalari. Hazaj bihri haqida tushuncha. Qit'a, fard, soqiynoma, munojot janrlari haqida tushuncha.

Munozara janri va uning o'zbek adabiyotidagi namunalari.

O'zbek mumtoz adabiyotida badiiy tarjimalar. Nizomiy Ganjaviy va Sa'diy Sheroziy asarlarining ijodiy tarjimalari.

Shoir Qutb hayoti va ijodining manbalari. "Xusrav va Shirin"

dostonining yaratilish tarixi, nusxalari, kompozitsiyasi va syujeti.

Sayfi Saroyi hayoti va ijodining manbalari. "Guliston bit-turkiy" asarining tarkibi. Asardagi asosiy g'oya, ko'tarilgan masalalar.

Temuriylar davri o'zbek adabiyoti

(XV asr)

XV asrda epik she'riyat va doston janri taraqqiyoti. Durbek haqidagi munozaralar. "Yusuf va Zulayho" dostonining o'rganilishi, syujeti, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.

Haydar Xorazmiy hayoti va ijodining manbalari. "Maxzan ul-asror" dostonining kompozitsiyasi. Asarda tarjima va ijodiy o'ziga xoslik. "Gul va Navro'z" dostoni muallifi masalasidagi munozaralar va ularning yechimi. Asar syujeti, obrazlari, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.

XV asrda lirik she'riyat taraqqiyoti. Atoyi ijodiy merosining o'rganilish tarixi. Atoyi "Devon"ining o'ziga xos xususiyatlari. G'azal haqida tushuncha, Atoyi g'azallarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.

Sakkokiy hayoti va ijodining o'rganilish tarixi. Adabiy merosi. Qasida haqida tushuncha, Sakkokiy qasidalar.

Gadoiy hayoti va ijodining o'rganilish tarixi. Gadoiyning ijodiy merosi.

Lutfiyning ijodiy faoliyati. Lutfiy va Navoiy. Lutfiy va Jomiy. Lutfiy lirikasi manbalari, o'rganilishi. Shoir she'riyatining janr xususiyatlari. Lutfiy g'azal va to'rtliklarining badiiy xususiyatlari. Ruboiy va tuyuq janrlari haqida tushuncha.

Sulton Husayn Boyqaro - Husayniy lirikasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Alisher Navoiy Husayn Boyqaro haqida.

XVI asr adabiyoti

Davrning tarixiy sharoiti, madaniy hayoti va adabiy-ilmiy muhiti. Manbalar va ularni o'rganish tamoyillari. Tasavvuf tariqatlari va adabiy-badiiy jarayon. Tazkiranavislik. "Muzakkiri ahbob"ning ilmiy qimmat. Mutribiy, Maleho Samarqandiy tazkiralari.

Bobur hayoti va ijodi. Bobur hayoti va ijodining o'rganilish tarixi. "Qobul" va "Hind" devonlari, "Xatti Boburiy", "Mubayyin", "Muxtasar", "Risolayi Volidiya", "Boburnoma" haqida umumiy ma'lumot. Bobur she'riyati. Bobur g'azaliyotining uslubi masalasi. Bobur ruboiylarining o'ziga xosligi.

"Boburnoma" tarixiy-memuar janrining nodir namunasi. Asarning yaratilish tarixi va o'rganilishi. "Boburnoma"da tarixiy shaxslar, ijod va ijod ahliga munosabat.

Hindistonda Bobur an'analari. Muhammad Bayramxon, Komron Mirzo va Gulbadanbegim ijodi haqida ma'lumot.

O'zbekxonlar davrida adabiy hayot. Muhammad Shayboniynoma va Muhammad Soleh adabiy merosi. "Shayboniynoma" – tarixiy-badiiy manba, asar mundarijasi, badiiyati.

Qul Ubaydiy hayoti va ijodi manbalari. Ubaydiy merosi, she'riy mahorati. Janrlar takomilidagi o'rni.

Xoja va o'zbek nasriy hikoyachiligi taraqqiyoti. "Miftoh ul-adl" va "Gulzor" asarlarining janriy tarkibi va mazmun-mundariyasi. "Maqsad ul-atvor" dostoni, an'ana va yangilik. Majlisiy va uning "Qissai Sayfulmuluk" asari, manbalari, mazmuni, xalq og'zaki ijodigamunosabat.

6-SEMESTR

Buxoro adabiy muhiti: Turdi Farog'iy, Mujrim-Obid, Shavqiy

Kattaqo'rg'oniy, Xiromiy

XVII-XIX asrlarda Buxorodagi adabiy hayot, Turdi Farog'iy hayot faoliyati, shoir lirikasining janri, mavzu yo'nalishi, «Subhonqulixon va uning amir-amaldorlari haqida hajviya» muxammasining g'oyaviy-badiiy tahlili, Nodirmuhammad, Abdulazizxon, Subhonqulixon, Turdi, Farog'iy, 18 ta she'r: 12 g'azal, 5 muxammas, 1 fard, «Subhonqulixon...» muxammasi, 33 beshlik, 165 misra, 1681 yil tarix moddasi, ijtimoiy mavzu, A.Majidiy, H.Yoqubov, A.Hayitmetov, Mujrim-gunohkor, Obid-ibodat qiluvchi taxalluslari, Buxoro tahsili, Mirakxo'ja, Nazirxo'ja, «Arzi ahvol» masnaviysi, o'zbekcha va tojikcha devon, 1960, ijtimoiy mavzu, "Qilur", «Bevafo dunyo», «Topmadim», Navoiy g'azallariga tazmin, ishq, tasavvufiy jihatlar, «Ko'rsam», «Qurboning bo'lay».

Diniy – tasavvufiy adabiyot:

So'fi Olloyor, Xo'janazar Huvaydo, Boborahim Mashrab

Diniy-didaktik adabiyot, yangicha talqin, So'fi Olloyor hayoti va ijodining o'rganilish tarixi, So'fi Olloyor hayoti va faoliyati, So'fi Olloyor masnaviylari, shoir lirikasi, I.Suvonqulov, Sh.Sirojiddinov, B.Valixo'jayev, I.Haqqul, N.Komilov Kattaqo'rg'on, Buxoro, G'uzor, Katta Vaxshivor, «Maslakul - mutaqqin», «Sabot ul ojizin», «Murod ul - orifin», «Najot ul - tolibon», janr va uslub xususiyatlari, ta'limiy yo'nalishi, badiiyati. 80 yaqin she'r, "Bayozi Alamkash", "Ko'zing ibrat bila och", 2002, Mashrabshunoslik tarixi, Mashrab hayoti va faoliyati, shoir she'riyatining janr rang-barangligi va mavzu ko'lami, "Mabdai nur", "Kimyo" asarlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, mashrabshunoslik, N.Likoshin, G'.G'ulom, ikki Mashrab, M.Zokirov, J.Yusupov, Z.Bog'istoniy «Tazkirai qalandaron», Maleho Samarqandiy "Muzakkir ul-ashob", lirik meros: g'azal, mustazod, murabba'lari. Ilohiy va majoziy ishq talqini, poetik mahorati. «Mabdai nur», «Kimyo», «Qissai Mashrab», P.Setoriy, Huvaydo adabiy merosining o'rganilish tarixi, Huvaydo tarjimai holiga oid ma'lumotlar, shoir she'riyati, "Rohati dil" va "Ibrohim Adham" asarlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.

Qo'qon adabiy muhiti: Amiriy, Nodira, Maxmur, Gulxaniy, Uvaysiy, Xon ijodi

Qo'qon adabiy muhiti, Amiriy hayot faoliyati, ijoning o'rganish tarixi, Shoir lirikasi, Mohlaroyim Nodira hayoti faoliyati, Nodira devonlarining janr ko'lami va mavzu rang-barangligi, Maxmur hayoti faoliyati va o'rganilish manbalari, Shoir adabiy merosi, hajviyalari tahlili, "Hapalak" g'azali tahlili, Gulxaniy hayoti va ijodi manbalari, o'rganilish tarixi, Gulxaniy she'riy merosi, 12 g'azal, 1 qasida, masal janri va «Zarbulmasal» asari, uning kompozitsion xususiyatlari, Uvaysiy hayot faoliyati va o'rganilishi, shoira lirikasining janr va mavzu rang-barangligi, Uvaysiy qissa va dostonlari, "Qissayi shahzoda Hasan", "Qissayi shahzoda Husayn", "Voqeoti Muhammad Alixon", tasavvufiy mayllar. Muhammad Alixon (Xon) ijodi. Davlat arbobi sifatidagi faoliyati. Tarjimai holi. Muhammad Alixon ijodida Navoiy va Fuzuliy an'analari. Fuzuliy g'azallariga tazmin va taxmislar. Devonining janriy tarkibi. She'riy mahorat qirralari. She'riyatining tasavvufiy asoslari

Xiva adabiy muhiti: Abulg'oz Bahodirxon, Mavlono Vafo, Pahlavonquli Ravnaq, Muhammad Xoksor, Roqim, Muxammadniyoz Nishotiy, Nurmuxammad Andalib, Munis, Ogahiy adabiy merosi.

Xiva xonligidagi ijtimoiy, madaniy, adabiy hayot, tarixnavislik va lug'atshunoslik: Abulg'oz Bahodirxon, Muhammadi Xoksor, Mavlono Kiromiy adabiy merosi, Mavlono Vafo – Vafoiy ijodi, Pahlavonquli Ravnaq hayoti va adabiy merosi, Roqim adabiy merosi, Umar Boqiy va uning qissalari, Nurmuxammad Andalib hayoti va ijodi, Muhammadniyoz Nishotiy hayoti va ijodining o'rganilish tarixi, «Husn-u Dil» dostoni va uning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, Nishotiy munozaralari, "Qushlar munozarasi" asari, shoir lirikasi, Munisshunoslik tarixi, manbalari, Shermuxammad Munis hayot faoliyati, adabiy merosi, «Munis ul ushshoq» devonining janriy tarkibi, mavzu ko'lami, «Savodi ta'lim» asari- ilmiy she'riyat namunasi, «Firdavs ul iqbol» asari haqida, Ogahiyshunoslik tarixi, manbalari, Muhammadrizo Ogahiy hayoti va adabiy merosi, «Taviz ul oshiqin» devonining janr tarkibi, mavzu ko'lami, Ogahiy – tarjimon, tarixiy asarlari.

Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti bosqichi

Milliy uyg'onish davrining o'zbek adabiyotining birinchi bosqichi "ilk mustamlakachilik davri adabiyoti" 1865-1905 yillarni o'z ichiga oladi. Davrning dahshatli voqealarga to'la kortinasi tarixiy-badiiy asarlarda o'z ifodasini topdi. Chor Rossiya tomonidan xonliklarning, markaziy shaharlarning bosib olinishi, mustamlaka zulmining kuchayishi, ma'naviy hayotning porakandalikka yuz tutishi, xalq ozodlik harakatlari bu davr adabiyotiga alohida mavzu sifatida kirib keldi. Bu o'z navbatida adabiy janrlar va vaznlarning yangilanishiga ham asos bo'ldi. Yangicha yo'nalishdagi hajvchilik maydonga keldi: she'riy manzumalar, sayohatnomalar, maktubotlar turkumi yaratildi. Toshkent va boshqa markaziy shaharlarda bosmaxonalarning vujudga kelishi, matbuotning yo'lga qo'yilishi, o'qitish tuzumidagi yangiliklar mustamlakaga o'lkada yangicha ma'rifatparvarlikning vujudga kelishiga asos bo'ldi. Tarjimachilik ancha rivoj topdi: sharq

adabiyotidan "Ming bir kecha", "Kalila va Dimna", "Guliston" asarlari tarjimai bilan barobar rus va Evropa adabiyotidan tarjima qilindi.

Komil Xorazmiy (1825-1899)

Ijodiy merosining o'rganilishi tarixi. Tarjimai holi. Komil yirik madaniy tadbirlar tashkilotchisi sifatida. Toshkent safari (1991). Komil ijodida yangicha ma'rifatparvarlik. Hayotining oxirgi yillari, fojiasi. Komil va Feruz munosabatlarining yangicha talqini. Ijodiy merosi, lirikasi, hajviyoti, tadqiqotlari. Bastakor, musiqashunos va tarjimonlik faoliyati.

Muhammad Rahimxon Feruz (1844-1910)

Adabiy merosi. Shoir ijodini o'rganish tarixidan. Tarjimai holi. Adabiyot va san'at rahnamosi. Feruz-musiqashunos, mohir sozanda va bastakor, san'atkor hamda talabchan muxlis. Feruz – maorif homiysi va taraqqiyparvar.

Ilk matbaachilik va adabiy meros targ'ibidagi xizmatlari. Feruz va Rossiya istilochilik siyosati. Feruz va Xorazm adabiy muhiti.

Ahmad Tabibiy (1969–1911)

Hayoti va ijodi. Tabibiy va mumtoz adabiyot. "Majmuat ush – shuaro" tazkirasi. Lirik merosi. "Vomiq va Uzro" dostoni. Tabibiyning san'at, musiqa, xattotlik sohasidagi faoliyati, o'zbek madaniyati tarixidagi o'rni.

Muqimiy (1850-1903)

Hayoti va adabiy merosi o'rganilishi tarixi. Tarjimai holi. Toshkentdagi hayoti (1887, 1892, 1899 yillar). Hayotining so'nggi yillari. Ijodiy merosi: lirikasi, hajviyoti. Shoir satirasida siyosiy mavzu. Yumrlari. ("Ot", "Ko'sa" turkumlari). "Sayohatnoma"lari. Muqimiy ijodida maktub janri.

Furqat (1859-1909)

Tarjimai holi. Farg'ona hamda Toshkent davri faoliyati. Furqatshunoslik tadriji. Yangicha ma'rifatparvarlik faoliyati. Rus mustamlaka siyosatiga munosabati. Furqat va jadidchilik. Tasavvuf ta'limotiga oid qarashlari. Chet ellardagi faoliyati. Ijodiy merosi.

Ishoqxon Ibrat (1862-1937)

Ma'rifatparvar shoir, publitsist, tarixshunos, tilshunos olim, sayyoh, ilk o'zbek matbaachilaridan biri sifatidagi faoliyati. Hayoti va ijodi. Chet ellarga sayohati. "Usuli jadid" maktablarini ochishi. "Matbaai Ishoqiya", "Kutubxonai Ishoqiya"ning vujudga kelishi. Matbuotda chop etilgan asarlari. Ilmiy faoliyati. Rus bosqiniga munosabati.

Almai (1852-1891)

Ijodiy merosi. Lirikasi. Tarjimalari ("Kalila va Dimna"). Hikoyalaridan

namunalar. Almaiyning o'zbek tarjima adabiyotida tutgan o'rni.

Karimbek Kamiy (1865 – 1922)

Kamiy ijodiga munosabat masalasi. Tarjimai holi. Kamiy va Toshkent adabiy muhiti. Ma'rifat mavzuidagi she'rlari. Hajviyoti. Tarjimalari. Kamiy dunyoqarashi. Shoir ijodida tasavvufiy unsurlar. Diniy mavzu. Jadidcha va qadimcha qarashlari.

Milliy va ijtimoiy kurashlar davri adabiyoti

XX asr boshlari Turkistonda ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot. Jadidchilik. Turkistonda jadidchilikning rivojlanish bosqichlari. Davrlashtirish tamoyillari. Ma'rifiy islohotlar davri. Ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy kurashlar davri.

Madaniy-adabiy hayot (1905-1917). "Usuli jadid" maktablari. Milliy matbuot. Xayriya jamiyatlari va boshqa turli ma'rifiy tashkilotlar. Yangi milliy teatr. Badiiy adabiyot. Adabiy tanqid. Badiiy tarjimachilik.

Ijtimoiy tarixiy voqealar. 1917 yil fevral inqilobi va uning Turkistondagi aks-sadosi. Milliy ozodlik va mustaqillik uchun kurash g'oyalari. "Turkiston muxtoriyati". Mafkuraviy bo'hronlar. Adabiy-madaniy harakatchilik. 20-yillar matbuoti va adabiyoti. O'zbek romanchilik maktabi. Milliy dramaturgiya. Teatr va adabiy tanqidchilik. Sho'rolar tomonidan adabiyotni mafkuraviy kurashlar vositasiga aylantirish siyosati.

Ismoilbek Gasprinskiy (1851-1914)

Hayoti va faoliyati. Jadid maktablarining ta'sischi. Gasprinskiy va Turkiston. "Tarjimon" gazetasida Turkiston hayotining yoritilishi. Badiiy asarlarida Turkiston mavzusi. Adabiy-estetik qarashlari.

Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919)

Hayoti va faoliyatining o'rganilish tarixi. Tarjimai holi. Turkistonda jadid maktablarining tolmas targ'ibotchisi va tashabbuskorlaridan biri. Behbudiy va Turkiston milliy matbuoti. Ijodiy merosi. "Padarkush" pesasi. Publitsistikasi. Adabiy-estetik qarashlari. "Sayohat xotiralari".

Abdulla Avloniy (1878-1934)

Avloniyshunoslik. Hayoti sahifalari. "Shuhrat" gazetasini chiqarishi. Yangi maktablar tashkil etishi. Ijtimoiy faoliyati. Avloniy - aktyor, rejissyor, xormeyst, teatr badiiy rahbari, dramaturg, tarjimon. Ijodiy merosi. Pedagogik asarlari, she'riyati, dramalari, publitsistikasi. Til, adabiyot, san'at, matbuot, maorif muammolariga oid maqolalari. "Afg'on kundaliklari" - o'zbek publitsistikasi va memuar adabiyoti namunasi.

To'lagan Xo'jamiyrov - Tavallo (1883-1937)

Hayoti sahifalari. Vaqtli matbuotdagi ishtiroki. Ijodi. "Ravnaq ul-islom" to'plami. Tavallo va Munavvarqori, Behbudiy munosabatlari. She'rlarining badiiyati. Tavallo va tatar adabiyoti.

Sirojiddin Sidqiy (1884-1934)

Shoir ijodining o'rganilishi. Hayoti va ijodiy faoliyati. Shoirning ilk bosma kitoblari. Birinchi jahon urushi va shoirning unga munosabati. She'rlarida mardikorlik voqealari talqini. 1917 yil va Sidqiy. "Rabo(t)chilar namoyishi", "Rabo(t)chilar kelishi", "Toza hurriyat", "Rusiya inqilobi" asarlarining yozilishi. Shoirning 1917 yildan keyingi hayoti va ijodi.

So'fizoda (1880-1937)

Ijodining o'rganilishi tarixi. Tarjimai holi. Hajviyalari. So'fizoda va ozarboyjon mutafakkirlari. So'fizodaning "usuli savtiya" maktablari ochishi. Matbuotdagi ishtiroki. Ma'rifatparvarlik yo'nalishidagi she'rlari. Lirikasi.

Abdurauf Fitrat (1886-1938)

Hayoti va ijodining o'rganilishi tarixi, manbalari. Tarjimai holi. Ijodiy merosi. She'riyati. Nasriy asarlari. Turkiy til bilimdoni va jonkuyari sifatidagi faoliyati. Adabiyot nazariyasiga oid ishlari. Qadimgi turkiy yodgorliklar ustida olib borgan tadqiqotlari. Sharq mumtoz adabiyoti namoyandalari merosiga oid ilmiy ishlari. Tarixiy asarlari.

Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929)

Ijodining yangicha talqini. Tarjimai holi. Ijodiy merosi. She'rlarida milliy uyg'onish g'oyasi. Hamza nasri va jadidchilik. "YAngi saodat" milliy romani. Dramalari.

Abdulla Qodiriy (1894-1938)

Hayoti sahifalari. Ijodiy merosi. "Baxtsiz kuyov" pesasi. Jadidchilik va Abdulla Qodiriy hikoyalari. Hajviy asarlari. Birinchi roman - "O'tkan kunlar"ning yaratilishi. "Mehrobdan chayon" romani. Bu romanlarning turkiy xalqlar adabiyotiga ta'siri. Abdulla Qodiriyning 30-yillardagi ijodida zamonasozlik mayllari, buning sabablari.

Cho'lpon (1897-1938)

Tarjimai holi. Jadidchilik va Cho'lpon she'riyati. Shoirning o'zbek she'r tizimidagi islohotlari. Hikoyalari. Dramalari. "Kecha va kunduz" romani. Romanning o'zbek realistik nasri shakllanishi va taraqqiyotidagi ahamiyati.

Ma'ruza mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

1. Mumtoz adabiyotga kirish. Maqsad va vazifalar, genezisi, shakllanishi, taraqqiyoti.
2. Mumtoz adabiyotning manbalari, mumtoz she'r.
3. An'anaviy mavzu, obraz, badiiy uslub.
4. Mumtoz poetika. Ilmi aruz, ilmi bade', ilmi qofiya haqida ma'lumot.
5. Mumtoz adabiyotda adabiy turlar va she'r nav'lari
6. Epik she'riyat. Xamsachilik an'anasi.

7. Eng qadimgi davrlardan X asrgacha bo'lgan adabiyot
8. Yozma yodgorliklar
9. XI-XIII asrlarda Markaziy Osiyoda madaniy hayot. Mahmud Koshg'ariy va uning "Devonu lug'oti-t-turk" asari.
10. Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodining manbalari.
11. Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodining manbalari.
12. Xoja Ahmad Yassaviy ijodi. Turkiy she'riyatda hikmat janrining shakllanishi.
13. Davr madaniy hayotiga sharh. Nosiriddin Rabg'uziy hayoti va ijodining manbalari
14. O'zbek adabiyotida noma janri taraqqiyoti. Xorazmiy va uning "Muhabbatnoma"si.
15. XIV-XV asrlarda badiiy tarjimalar: Qutbning "Xusrav va Shirin" dostoni
16. Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy" asari
17. Haydar Xorazmiy va Durbeklarning hayoti va adabiy merosi.
18. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. Sakkokiy hayoti va ijodining o'rganilish tarixi.
19. Munozara janri. Munozara janrining manbalari. Yusuf Amiriy va uning "O'q va yoy" asari.
20. Atoiy va Gadoiy lirikasi.
21. Lutfiy va Husayniy ijodiy faoliyati.
22. XVI asr adabiy muhiti. Zahiriddin Muhammad Bobur adabiy merosi.
23. Zahiriddin Muhammad Bobur adabiy merosi ("Boburnoma") va boburiylar davri adabiyoti: Bayramxon, Komron Mirzo, Gulbadanbegim.
24. O'zbekxonlar davrida adabiy hayot: Muhammad Shayboniy, Muhammad Solih.
25. Ubaydiy va Xoja ijodi.
26. Buxoro adabiy muhiti: Turdi Farog'iy, Mujrim-Obid, Shavqiy Kattaqo'rg'oniy, Xiromiy.
27. Diniy – tasavvufiy adabiyot: So'fi Olloyor, Xo'janazar Huvaydo.
28. Boborahim Mashrab hayoti va ijodi
29. Qo'qon adabiy muhiti: Amiriy va Nodira ijodi
30. Maxmur, Muhammadsharif Gulxaniy hayoti va ijodi.
31. Uvaysiy, Xon adabiy merosi.
32. Xiva adabiy muhiti: Abulg'ozi Bahodirxon, Mavlono Vafo, Pahlavonquli Ravnaq, Muhammad Xoksor.
33. Muxammadniyoz Nishotiy, Nurmuxammad Andalib,
34. Shermuhammad Munis hayoti va ijodi.
35. Muhammadrizo Ogahiy: shoir, tarjimon, tarixchi.
36. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotida ijtimoiy-siyosiy, madaniy-

- adabiy hayot. Komil Xorazmiy hayoti va ijodi
37. Muhammad Rahimxon – Feruz hayoti va ijodi.
 38. Ahmad Tabibiy hayoti va ijodi.
 39. Muhammad Aminxo‘ja hayoti va adabiy merosi
 40. Zokirjon Furqat hayoti va adabiy merosi
 41. Ma‘rifatparvar shoir – Is‘hoqxon Ibrat.
 42. Toshkent adabiy maktabi. Fazlulloh Almaiy va Karimbek Kamiylarning adabiy faoliyati haqida ma‘lumot
 43. Ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy kurashlar davri. XX asr boshlari Turkistonda ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot. Ismoilbek Gasprinskiy hayoti va faoliyati
 44. Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va ijodiy merosi.
 45. Abdulla Avloniy hayoti va ijodiy merosi
 46. To‘lagan Xo‘jamyorov – Tavallo, Sirojiddin Sidqiy va Muhammadsharif So‘fizoda hayoti va adabiy merosi
 47. Abdurauf Fitrat hayoti va adabiy merosi
 48. Hamza Hakimzoda Niyoziy hayoti va adabiy merosi
 49. Abdulla Qodiriy hayoti va adabiy merosi
 50. Cho‘lpon hayoti va adabiy merosi

III. Amaliy (yoki laboratoriya) mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. O‘zbek adabiyotini davrlashtirish, shakllanishidagi manbalar. Mumtoz she‘r. Mumtoz poetika.
2. Mumtoz adabiyotda an‘anaviy mavzu va obrazlar, badiiy uslub
3. “Devonu lug‘ati-t-turk” asaridagi adabiy parchalar. Mazmuni, janr xususiyatlari.
4. “Qutadg‘u bilig” dostoni. Doston tarkibi, timsollar doirasi va ramziy mazmuni.
5. Ahmad Yugnakiy haqidagi ma‘lumotlar, “Hibat ul-haqoyiq” dostonining o‘rganilishi, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, aruz she‘riy tizimi haqida.
6. Xorazmiy “Muhabbatnoma”si va nomanavislik an‘anasining
7. XV asrdagi taraqqiyoti
8. "Gul va Navro'z" hamda "Yusuf va Zulayho" dostonlari tahlili
9. Qutb Xorazmiyning “Xusrav va Shirin” hamda Haydar Xorazmiyning

“Gulshan ul-asror” dostonlari tahlili

10. Zahiriddin Muhammad Bobur adabiy merosi
11. Muhammad Shayboniy ijodi
12. Ubaydiy ijodi
13. Хожа хикоятлари таҳлили
14. Majlishiy va uning adabiy merosi
15. Turdi Farog'iy adabiy merosi.
16. Andalibning dostonnavislik mahorati.
17. Xo'janazar G'oibnazar o'g'li Huvaydo hayoti, adabiy merosi.
18. Nishotiyning «Husn va Dil» dostoni syujeti va kompozitsiyasi. Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari matni va asarda majoz masalalari.
19. Qo'qon adabiy muhitida janrlar poetikasi: Amiriy, Nodira, Uvaysiy
20. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Maqsad va vazifalari. Muhammad Rahimxon Feruzning «Elga shohu ishqqa qul» asarini o'rganish.
21. Komil Xorazmiy hayoti va ijodiga oid ilmiy asarlarni o'rganish shoir asarlari taxlili.
22. Is'hoqxon Ibrat va uning asarlari tahlili.
23. XX asr boshlari Turkiston ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotiga oid ilmiy asarlar ustida ishlash. Ismoilbek Gasprinskiyning Turkistonga oid asarlari. "Dorur-rohat musulmonlari", "Mukolamai salotin" asarlari tahlili.
24. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi va jadid dramachiligi. Abdulla Avloniy she'rlari tahlili.
25. A. Avloniyning jadid adabiyotida tutgan o'rni
26. Abdurauf Fitrat - yangicha adabiy tafakkur asoschisi. Fitratning nasriy va dramatik asarlari tahlili.
27. Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodini mustaqillik davrida o'rganish muammolari haqida munozara.
28. Cho'lpon she'rlari tahlili.

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. “Qutadg’u bilig” dostonidagi asosiy timsollar tavsifi
2. “Hibat ul-haqoyiq” va “Devoni hikmat”dagi to’rtliklarning badiiy xususiyatlari (qiyosiy tahlil).
3. Rabg'o'ziy va uning "Qisas ul-anbiyo" asaridan hikoyat va qissalar tahlili
4. Sakkokiy g'azallari badiiyati. Qasidalarining mazmuni.
5. Atoiy she'riyati. G'azallarida yetakchi timsollar. Majoz va haqiqat talqini.
6. Lutfiy she'riyati timsollar olami tahlili.

7. Gadoiy ijodi. Gadoiy g'azallarining timsol doirasi.
8. Husayniy g'azallari tahlili.
9. "Boburnoma" asarining tarixiy va badiiy xususiyatlari
10. Mashrab g'azallari tahlili
11. So'fi Olloyor ilmiy-adabiy merosi. Xo'janazar Huvaydo she'riyati
12. histon janri va Uvaysiy chistonlari
13. Nodira lirikasi, "Firoqnoma" muashshari tahlili
14. Munozara janri va Nishotiy munozaralari
15. Shermuhammad Munis she'riyati tahlili
16. Muhammadrizo Ogahiy g'azallari va qasidalarini tahlili
17. Muqimiy «Sayohatnoma»larining g'oyaviy tahlili. Muqimiyning hajviy asarlari
18. Furqat hayoti va ijodini o'rganishning dolzarb masalalari. Furqat g'azallarining badiiy tahlili
19. Sh. Yusupovning "Furqat yo'llarida" asarini o'rganish
20. Ahmad Tabibiy lirikasi, doston va tazkiranavislik faoliyatini o'rganish.
21. azlulloh Almaiy va Karimbek Kamiy she'riyati va ijodiga ilmiy asarlar tahlili
22. irojiddin Sidqiy hamda Muhammadsharif So'fizodalar ijodi va faoliyati haqida ma'lumot
23. bdulla Qodiriy adabiy faoliyati haqida ma'lumot
24. Abdulhamid Cho'lpon va uning o'zbek adabiyotidagi o'rni

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbekistonda avestoshunoslikka oid ilmiy asarlar ro'yxatini tuzish va ayrim asarlarga annotatsiya yozish.
2. "Avesto"ning qismlarini tanlab o'rganish, asardagi tangri Xo'rmuzdga oid sifatlarni belgilash.
3. "Avesto"dagi mifologiyani o'rganish (xudolarning ismlari misolida).
4. Qadimgi turkiy yodgorliklar bo'yicha O'zbekistonda yaratilgan ilmiy asarlarning bibliografiyasini tuzish, monografiyalarga annotatsiya yozish.
5. Turkiy qavmlar tarixiga oid afsona va rivoyatlarni tahlil qilish.
6. "Shohnoma"dan "Rustam va Suhrob" dostonini o'rganish
7. Ibn Sinoning adabiy faoliyatiga oid asarlar annotatsiyasini tuzish.
8. Beruniyning adabiyotga oid faoliyatini o'rganish, "O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar" va "Mineralogiya" kitobidagi hikoyat va

rivoyatlarni tahlil qilish.

9. X–XII asrlarda O‘rta Osiyoda fors tilida yaratilgan badiiy adabiyotga oid materillar yig‘ish va bibliografiya tuzish.
10. “Devoni hikmat” va “Hibat ul-haqoyiq” asarlaridan tanlangan to‘rtliklarning shakli va mazmunini qiyoslash.
11. Dovud va Sulaymon qissalari (“Qisasi Rabg‘uziy”dagi) tahlili.
12. “Suxayl va Guldursun” dostonini tahlili.
13. “Funun ul-balog‘a” - adabiyotshunoslik asari sifatida
14. “Funun ul-balog‘a” asarida o‘zbek adabiyotiga noma'lum bo‘lgan shoirlarni o‘rganish.
15. Husayn Boyqaro “Risola”sida Navoiy va Jomiy ta’rifi.
16. “Muzakkiri ahhob”ning XVI asr o‘zbek adabiyotshunosligida tutgan o‘rni.
17. “Boburnoma” - adabiyotshunoslikka doir asar.
18. Abulg‘ozi Bahodirxon, Komron Mirzo, Xon ijodi.
19. Bobur, Komron Mirzo, Ubaydiy, Mashrab, Huvaydo, Amiriy, Nodira, Uvaysiy, Munis, Ogahiy g‘azallaridan bittadan namuna yod olish.
20. Sayfi Saroyi, Atoyi, Gadoiy, Sakkokiy, Husayniy, Navoiy g‘azallari tahlili.
21. “Muzakkiri ahhob”ning XVI asr O‘zbek adabiyot-shunosligida tutgan O‘rni.
22. “Boburnoma” - adabiyotshunoslikka doir asar.
23. Huvaydoning “Ibrohim Adham” qissasi va undagi timsollar
24. “Zarbulmasal” asaridagi maqollarni O‘rganish.
25. “Yusuf va Zulayho”, “Husn-u Dil” dostonidagi obrazlar va timsollar.
26. Bobur, Komron Mirzo, Ubaydiy, Mashrab, Huvaydo, Amiriy, Nodira, Uvaysiy, Munis, Ogahiy g‘azallaridan bittadan namuna yod olish.
27. Qul Ubaydiy ruboiylari
28. Gulxaniyning g‘azallari tahlili.
29. “Husn-u Dil” dostoni sujeti va ramziy timsollari.
30. Andalibning “Yusuf” va Zulayho” dostoni.
31. Huvaydoning “Ibrohim Adham” qissasi.
32. Amiriy, Nodira, Uvaysiy, Munis, Ogahiy g‘azallaridan yod olish.
33. Siddiqiy-Ajziy ijodida ma’rifat va Vatan mavzusi talqini
34. Munavvarqori Abdirashidxonov — o‘zbek jadidchilik harakatining yo‘lboshchilaridan biri.
35. Vasliy Samarqandiy xayoti va ijodiy merosi.
36. Xorazm adabiy maktabi vakillari (Komil Xorazmiy, Muhammad Rahimxon, Feruz g‘azallaridan yod olish)
37. Qo‘qon adabiy maktabining faol vakillaridan Muqimiy, Furqat g‘azallari va hajviyalaridan yod olish va tahlil qilish.
38. Qoriy Xo‘qandiy, Muhyi Huqandiy, Isxoqxon Ibrat ijodlariga doir

	qo'shimcha manbalar bilan tanishib chiqish va konspektlashtirish. 39. Toshkent adabiy maktabi vakillari Fazlulloh Almaiyning «Kalila va Dimnai turkiy» tarjima asarini o'qish va konspektlashtirish. 40. Mahmudxo'ja Behbudiyning «Padarkush» dramasi tahlili. 41. Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud ahloq» asarini o'qib chiqish va tahlil qilish. 42. Tavallo she'rlaridan yod olish va uning lug'atini tuzish. 43. Abdurauf Fitratning «Abulfayzxon» tarixiy fojiaiy dramasi konspektlashtirish. 44. Hamza Hakimzoda Niyoziy drammalarining badiiy tahlili. 45. Abdulla Qodiriyning publitsistik maqolalarini o'qish va konspektlashtirish. 46. Abdulhamid Cho'lpon she'rlaridan yod olish.
3.	V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: ✓ Ilmiy, adabiy, tarixiy, diniy manbalar va ularning mazmuni haqida bilimga ega bo'ladilar. ✓ Mumtoz janrlarda yaratilgan she'riy asarlar va ularning janri, vazni, badiiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'ladilar. ✓ Obraz, mavzu, uslub haqida ma'lumotlarga ega bo'ladilar. ✓ Eng qadimgi davrlardan X asrgacha bo'lgan adabiyot va uning namunalarini haqida bilimga ega bo'ladilar. ✓ Janr, vazn, badiiy san'atlar, shakl va mazmun munosabatini o'rganish va o'rgatish, tahlil etish malakasi. ✓ Poetika va matn munosabatini o'rganish va o'rgatish malakasi. ✓ Aruz vaznida badiiy matnlar yaratish malakasi ✓ X-XII asr birinchi yarmidagi adabiy jarayon haqida to'liq tasavvurga ega bo'ladilar. ✓ XII-XIII Noyob adabiy hodisalar, badiiy va ilmiy asarlarning jamiyat, millat va shaxs rivojida ahamiyatini tushunadilar. ✓ XIII-XV asr birinchi yarmida yashagan ijodkorlar haqida atroflicha ma'lumotlarga ega bo'ladilar. ✓ XVI-XIX asr birinchi yarmidagi adabiy jarayon haqida to'liq tasavvurga ega bo'ladilar. ✓ Noyob adabiy hodisalar, badiiy va ilmiy asarlarning jamiyat, millat va shaxs rivojida ahamiyatini tushunadilar. ✓ XVI-XIX asr birinchi yarmida yashagan Z.M. Bobur va boburiylar, o'zbekxonlar, Qo'qon xonligida, Buxoro amirligida, Xorazm xonligida

	yetishib chiqqan ijodkorlar haqida atroflicha ma'lumotlarga ega bo'ladilar. ✓ XIX-XX asr birinchi yarmidagi adabiy jarayon haqida to'liq tasavvurga ega bo'ladilar. ✓ Noyob adabiy hodisalar, badiiy va ilmiy asarlarning jamiyat, millat va shaxs rivojida ahamiyatini tushunadilar. ✓ Jadid adabiyoti vakillari ijodi va faoliyati haqida atroflicha ma'lumotlarga ega bo'ladilar. ✓ <i>Ko'nikma va malakalar jihatidan:</i> ✓ Mumtoz she'r, mumtoz nasr namunalarini tahlil qilish konikmasi. ✓ Talabalarda badiiy asar mohiyatini chuqur anglash, ularni tahlil va talqin qilish ko'nikmasini shakllantirish ✓ egallangan bilim va malakani xalq ma'naviyatini rivojlantirish yo'lida amaliyotga tadbiq etishdan iborat ✓ mavjud matnlarni tahlil va tadqiq etish, teran ilmiy-nazariy xulosa va yechimlarga kelish
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • tarqatma materiallar; • ko'rgazmali qurollar; • Kompyuter; media • Internet yangiliklari; • muammoli ta'lim; • qiyosiy tahlil.
5.	VII. Kreditni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	Asosiy adabiyotlar: 1. Сирожиддинов Ш. Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сарчашмалари. – Т.: Янги аср авлоди, 2011. 2. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент, Ўқитувчи, 1976, - 664 б. 3. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик. 1-5-жилд.-Т., Фан, 1978-1982. 4. О'zbek mumtoz adabiyoti namunalari / Majmua. (1-2-jildlar) Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: N.Rahmonov. – Т.: Fan, 2005, 2007. 5. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. 2003 6. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi (O'quv qo'llanma). –Т.: Yangi asr, 2006. 7. Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. -Тошкент, Фан, 2006. - 240 б

8. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: Fan, 2017.
9. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. (XVII-XIX asr I yarmi). O'quv qo'llanma.-T., Fan, 2006.- 272bet
- 10.Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити. ТАТ. 7- жилд. Мумтоз сўз, 2010.
11. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Аҳмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Тошкент, «Маънавият»,2004
12. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик. 5-жилд.-Т., Фан, 1978.
- 13.Қосимов Б.Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Тошкент «Маънавият» 2002.
- 14.Орзибеков Р. Миллий уйғониш даври адабиёти. Самарқанд
- 15.Қосимов Б. Излай-излай топганим... Тошкент, Ғафур Ғулом нашриёти 1983.
- 16.Қосимов Б. Излай-излай топганим... Тошкент, Ғафур Ғулом нашриёти 1983.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. - T.: 2005.
2. Шарқ мумтоз поэтикаси Ҳ.Болтабоев талқинида. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008.
3. Tohirov S. O'zbek she'riyatida aruz (Uslubiy qo'llanma). – Samarqand: SamDU nashri, 2010.
4. Шарқ мумтоз поэтикаси Ҳ.Болтабоев талқинида. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008.
5. Махмуд Кошғарий. Девону луготит турк (С.Муталлибов таржимаси). I-III томлар. – Т.: 1960-63.
6. Абдуллаев В. Танланган асарлар. 2 жилдлик. 1-жилд. –Т.: Фан, 2002.
7. Иброҳимов И. XVI аср ўзбек адабиётининг асосий хусусиятлари. – Т.: Фан, 1976.
8. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari / Majmua. (1-2 jild) Tuzuvchi: N.Rahmonov. – T.: Fan, 2005; 2006
9. Қосимов Б. маслакдошлар. Бехбудий, Ажзий, Фитрат, Тошкент, 10.«Шарқ» 1994
- 11.Каримов Н. Истиқлолни уйғотган шоир. Тошкент. «Маънавият»2000
12. Куронов Д. Чўлпон ҳаёти ва ижодий мероси. Тошкент «Маънавият» 1997.

Axborot manbalari (saytlar):

1. [www. literature.uz](http://www.literature.uz)
2. [www. genhis philol.ru.](http://www.genhis.philol.ru)
3. <http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism>
4. <http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html>

7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2021 -yil - dagi -son bayonnomasi bilan ma'qullangan.	
8.	Fan/modul uchun mas'ullar:	Xoliqulova G.Y. SamDU mumtoz adabiyot tarixi kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi, Sulaymonov I.I. SamDU mumtoz adabiyot tarixi kafedrası dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc), Muxitdinova N.M. SamDU mumtoz adabiyot tarixi kafedrası dotsenti, (PhD).
9.	Taqrizchilar:	
	S.Tohirov	SamDU mumtoz adabiyot tarixi kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi (ichki)
	M.Xolova	SamDChTI dotsenti, (PhD). (tashqi)

Samarqand davlat universiteti
Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasining bakalavr (kunduzgi) talabalari uchun
mo'ljallangan "O'zbek adabiyoti tarixi" nomli fan dasturiga
T A Q R I Z

O'lkamiz mustaqillikka erishganidan keyin o'zbek adabiyotshunosligiga bo'lgan qiziqish kuchaydi va bu narsa adabiyotshunoslik ilmi, mumtoz poetika va badiiy san'ati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar oldiga ham dolzarb vazifalarni qo'ydi. Ayniqsa, o'zbek adabiyoti tarixini tadqiq etish, uning qadimiy uzvlari? Namunalari va manbalarni tiklash, janrlari va ularning badiiyati haqida fan dasturlari va qo'llanmalar yaratish adabiyotshunoslikning kechiktirib bo'lmaydigan vazifalaridan biriga aylandi.

Ajdodlarimizning ko'p acrlilik badiiy tafakkur durdonalarini bebaho milliy qadriyatlar tizimi sifatida saqlab qolish, targ'ib va tadqiq etish, uning eng nodir namunalarini keng ommalashtirishda adabiyotshunoslik fanining xizmatlari benihoya kattadir. Asrlar davomida xalqimizni yuksak ma'naviy komillik ruhida tarbiyalashdek ezgu maksadga xizmat qilib kelgan ana shu badiiy qadriyatlarni to'plash, folklor asarlarini arxivlashtirish, uning eng yaxshi namunalarini nashr etish, ilmiy urganish va ommalashtirish adabiyotshunoslikning asosiy maqsadini tashkil etadi.

Fan dasturi adabiy jarayon bilan tanishtirishda, tasavvur hosil qilishda, noyob adabiy, ilmiy asarlarning jamiyat, millat va shaxs rivojida ahamiyatini tushuntirishda, talabalarda adabiyot tarixini chuqur anglash ko'nikmasini hosil qilishda, mavjud matnlarni tahlil va tadqiq etish, teran ilmiy-nazariy xulosa va yechimlarga kelish malakasini shakllantirishda, egallangan bilim va malakani ta'lim tizimini rivojlantirish yo'lida amaliyotga tadbiq etishda muhim ahamiyatga ega.

"O'zbek adabiyoti tarixi" nomli fan dasturi "O'zbek adabiyoti tarixi" fanining ma'ruzalarning qisqacha mazmuni, amaliy mashg'ulot va seminar nazoratlarini o'tkazish uchun savollar hamda foydalanishga mo'ljallangan adabiyotlar berilgan. Ushbu fan dasturi belgilangan talablarga javob beradi.

S.Tohirov

SamDU mumtoz adabiyot tarixi kafedrasii
dotsenti, filologiya fanlari nomzodi (ichki)

Samarqand davlat universiteti
Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasining bakalavr (kunduzgi) talabalari uchun
mo'ljallangan "O'zbek adabiyoti tarixi" nomli fan dasturiga

T A Q R I Z

O'lkamiz mustaqillikka erishganidan keyin o'zbek adabiyotshunosligiga bo'lgan qiziqish kuchaydi va bu narsa adabiyotshunoslik ilmi, mumtoz poetika va badiiy san'ati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar oldiga ham dolzarb vazifalarni qo'ydi. Ayniqsa, o'zbek adabiyoti tarixini tadqiq etish, uning qadimiy uzvlari? Namunalari va manbalarni tiklash, janrlari va ularning badiiyati haqida fan dasturlari va qo'llanmalar yaratish adabiyotshunoslikning kechiktirib bo'lmaydigan vazifalaridan biriga aylandi.

Ajdodlarimizning ko'p acrlilik badiiy tafakkur durdonalarini bebaho milliy qadriyatlar tizimi sifatida saqlab qolish, targ'ib va tadqiq etish, uning eng nodir namunalari keng ommalashtirishda adabiyotshunoslik fanining xizmatlari benihoya kattadir. Asrlar davomida xalqimizni yuksak ma'naviy komillik ruhida tarbiyalashdek ezgu maksadga xizmat qilib kelgan ana shu badiiy qadriyatlarni to'plash, folklor asarlarini arxivlashtirish, uning eng yaxshi namunalari nashr etish, ilmiy urganish va ommalashtirish adabiyotshunoslikning asosiy maqsadini tashkil etadi.

Fan dasturi adabiy jarayon bilan tanishtirishda, tasavvur hosil qilishda, noyob adabiy, ilmiy asarlarning jamiyat, millat va shaxs rivojida ahamiyatini tushuntirishda, talabalarda adabiyot tarixini chuqur anglash ko'nikmasini hosil qilishda, mavjud matnlarni tahlil va tadqiq etish, teran ilmiy-nazariy xulosa va yechimlarga kelish malakasini shakllantirishda, egallangan bilim va malakani ta'lim tizimini rivojlantirish yo'lida amaliyotga tadbiq etishda muhim ahamiyatga ega.

"O'zbek adabiyoti tarixi" nomli fan dasturi "O'zbek adabiyoti tarixi" fanining ma'ruzalarning qisqacha mazmuni, amaliy mashg'ulot va seminar nazoratlarini o'tkazish uchun savollar hamda foydalanishga mo'ljallangan adabiyotlar berilgan. Ushbu fan dasturi belgilangan talablarga javob beradi.

M.Xolova

SamDChTI dotsenti, PhD. (tashqi)